



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/1 (10)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмуратов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайруллаевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акmal Xolmatovich – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Dilobar Batirovna – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Bakhodir Khamidovich – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Azamat Khamidovich – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli – доктор психологических наук.

Turakulov Ulugbek Holbutayevich – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Kholmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Иосифовна,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

MENEJMENT

Abdullajanova D.S. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari	4
--	---

SOTSILOGIYA

Saipova M. Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar	10
Xonturayev B. Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari	16
Йулдошева У. Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане	25
Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari	32

MAHALLA VA HAYOT

Isamutdinov R.R. Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati	37
--	----

OILA VA JAMIYAT

Abdiraimova Sh.A. Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....	44
Rahimova M. Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi	49
Dovranova O.D. Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish.....	53
Mahkamov U.A. So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....	58

PSIXOLOGIYA

Рахимова И.И., Каримова Г.О. Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха	64
Абидова З.А. Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности	69
Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	75
Raxmonova Z.N. Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....	80

PEDAGOGIKA

Ortikov U.X. The socio-educational model in second language acquisition.....	86
Yulchiyeva D.X. Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat	92
Аблакулов Ш.Д. Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов	98
Mirhamidova M. Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari	104
Safoyeva R.J. Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....	109
Yakubov O.T. Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari	114

TARIX

Sharipova N.A. XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi.....	118
--	-----



Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna,

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OILA BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT

Annotatsiya. Bugungi kunda oilalardagi munosabatlar barqarorligini ta’milashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatga alohida e’tibor qaratish dolzarb ahamiyatga egaligi xususida nafaqat umumiyligi ijtimoiy-psixologik, pedagogik tadqiqotlar, balki sotsiologik olimlarning ilmiy izlanishlarida ham yoritilayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu maqolada ham oila barqarorligini ta’milashda er-xotin va farzandlar o’rtasida ijobiy munosabatlarni yo’lga qo‘yish masalasi ijtimoiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, oila kodeksi, oilaviy munosabatlar, oila barqarorligi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Аннотация. Сегодня мы можем стать свидетелями того, что не только общие социально-психологические, педагогические исследования, но и научные исследования ученых-социологов подчеркивают острую важность уделения особого внимания социально-педагогической деятельности, которая проводится для обеспечения стабильности отношений в семье. В данной статье вопрос установления позитивных отношений между супругами и детьми в обеспечении стабильности семьи анализируется с социально-педагогической точки зрения.

Ключевые слова: семья, семейный кодекс, семейные отношения, стабильность семьи, социально-педагогическая деятельность.

Annotation. Today we can witness that not only general socio-psychological and pedagogical research, but also scientific research by sociologists emphasize the urgent importance of paying special attention to social and pedagogical activities that are carried out to ensure the stability of relationships in the family. In this article, the issue of establishing positive relationships between spouses and children in ensuring family stability is analyzed from a socio-pedagogical point of view.

Keywords: family, family code, family relationships, family stability, social and pedagogical activities.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagي “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni¹, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-кизларни тизимли кўллаб-кувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/5899498>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 yil 7 fevraldagi “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони <https://lex.uz/docs/3107036>

son qarori³da ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan respublikamiz oilalarida barqaror ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va ularning mustahkamligini oshirish, barqarorligini ta‘minlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-pedagog xizmatni yo‘lga qo‘yish yuzasidan mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Jahonda oilaviy munosabatlар muammosи, uni insoniyat taraqqiyotiga ta’siri, oilalarni farovonligiga ijtimoiy omillarning bog‘liqligini aniqlash va oilalarning baxtlilik darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmни yaratish dolzarb hisoblanadi. Oiladagi barkamol farzand tarbiyasini yanada yuksaltirish, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta‘minlash, pedagogik imkoniyatlarini kegaytirish ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda o‘z hayotiy maqsadlarini belgilashda oilaviy munosabatlarni tartibga solish, farzand tarbiyasida muhim manzil barqaror oila – tarbiya maskanini yaratish, oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning amaliy yo‘llarini yaratish muhim hisoblanadi. Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta‘minlash muammosи bugungi kunda murakkab va fanlararo masala ekani sababli ham uning manba bazasi nafaqat umumiy ijtimoiy-psixologik, pedagogik va falsafiy tadqiqotlar, balki sotsiologik tadqiqotlar bilan ifodalanadi. A.Fitrat, A.Avloniy, M.Behbudiy, Kaykovus, Farobiy va Ibn Sino kabi Sharq mutafakkirlarining ilmiy asarlarida shu masala alohida ko‘rib chiqilgan.

Yurtimizda N.Egamberdiyeva, O.Musurmanova, M.Quronov, Sh.Sodiqova, M.A’zamova, O.Jamoldinova, M.Inomova, F.Abdurahmonova, N.Yusupova, S.Rahimova, G’.Shoumarov, V.Karimova, A.Xasanboyeva, S.Yo‘ldosheva, Z.Qurban niyozova, R.Bozorova va Sh.Taylanova kabi olimlarning oilaviy munosabatlarda ijtimoiy-pedagogikada tarbiyaning muayyan tarmoqlari yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda mazkur mavzu ko‘tarilgan bo‘lsa-da, oila muhitini barqarorlashtirishda er-xotin munosabatlari muhim

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-3808-сон карори. <https://lex.uz/docs/3797625>

ahamiyatga ega ekanligi bo‘yicha yetarlicha pedagogik tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Shuni alohida ta’kildash lozimki, oila barqarorligini ta‘minlashda Ibn Sinoning sevgi-muhabbat hamda er-xotin munosabatlari haqidagi qarashlari dolzarb ahamiyatga ega. Olimning fikricha, “eng yuksak sevgi – bu insoniy sevgi” bo‘lib, bunday muhabbat insonni saxovatli qilib, uni oqko‘ngil va mehribon kishiga aylantiradi”. Alloma sevgining inson zimmasiga juda katta ma’naviy-axloqiy mas’uliyat yuklashini alohida qayd etib o‘tar ekan, “mutafakkir kishi baxtining negizi, deganda sevib qolishni emas, balki ikki tomonlama sevgini tushunilishi”ni aytgan. Shuningdek, olim tomonidan er-xotinning sevgi asosida turmush qurishi oila mustahkamligining asosi ekanini ta‘kidlaydi⁴. Ibn Sino ayollar xulqi eng maqbul, yuksak darajalarga ega bo‘lishi, aqli, iboli-hayoli va iffatli bo‘lishi hamda turmush o‘rtog‘iga bo‘ysunishi, uni hurmat qilishi, farzandlar dunyoga keltirishi, shuningdek, doimo halol, samimi, xushmuomala, to‘g‘riso‘z va kamtarin, o‘z ayollik nafosatini yo‘qotmasligi lozimligini alohida ta‘kidlagan. U aslo o‘z turmush o‘rtog‘iga nisbatan kalondimog‘lik, takabburlik hissini namoyon etmasligi, o‘z vazifalarini sidqidildan ado etib, oilada tejamkorlikka amal qilmog‘i, xatti-harakatlari va xulq-atvori bilan erining ko‘nglida hadiksirash hissini keltirmasligi hamda oilada barkamol farzandni tarbiyalamog‘i kerakligiga alohida e’tibor qaratadi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig”⁵ kitobida va qator boshqa asarlarida o‘zining oilaviy hayotga oid qarashlarini alohida to‘xtalib o‘tar ekan, u o‘z asarida oilaning pedagogik ahamiyatiga, barkamol farzand tarbiyasida ota-onaning barqaror munosabatlari katta e’tibor beradi.

Kaykovus o‘z o‘g‘liga atab yozgan “Qobusnomा”⁶ asarida ham barkamol farzand tarbiysi, barqaror oilaviy hayot, shaxs kamolot masalalariga to‘xtalib o‘tgан. Ushbu asarda oila qurish, oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni

⁴ Ибн Сино Абу Али. Тадбири манзил. – Тошкент, 2017. – 46 б.

⁵ Юсуф Хос Хожиб. Кутадгу билиг. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – 189 б.

⁶ Кайковус. Кобуснома // 2-тўлдирилган нашри. – Тошкент: Истиклол, 1994. – 173 б.

tashkil etish jarayonida shaxs qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozimligiga, oilada farzandni tarbiya qilish vazifasini amalga oshirish kerakligi keltirib o‘tilgan.

Bizga ma’lumki, “Qobusnoma” asari pedagogik tarbiya borasida juda katta ahamiyatga eka manba hisoblanadi. Asardan ota-onalar uchun, ayniqsa, kelajakda oila qurish niyatida bo‘lgan har bir yosh yigit-qizlarni oilaviy hayotga tarbiyalash uchun zarur ko‘rsatmalar olish mumkin.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Oila – kishilarning nikoh, qon-qarindoshlik, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlar asosida tabiiy-biologik turmush birligi va o‘zaro javobgarlik orqali bog‘langan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy, demografik vazifalari ham mavjud. Dunyodagi barcha xalqlar uchun oilaning mohiyati va vazifalari bir xil ko‘rinishga ega. Biroq ma’lum bir davrdan kelib chiqqan holda shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va milliy munosabatlar insonlarning turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e’tiqodi, milliy qadriyatlari sifatida har bir oilaga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi⁷.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 63-moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb qayd etilgan. Konstitutsianing mazkur normasi asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”ning 2-moddasi talabiga ko‘ra, “Oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo‘lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi”.

Shu o‘rinda “oila”ning atamasini yuridik jihatdan tahlil qilishga, uning tushunchasini ifodalashga to‘g‘ri keladi. Chunki “Oila kodeksi”ning 5-moddasida “Oila to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari

⁷ Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Тошкент: “Адолат”, 2016. – 224 б.

nikoh tuzish, nikohni tugatilishi(tugashi) va uni haqiqiy emas, deb topish shartlari va tartibini belgilaydi. Oila a’zolari esa er-xotin, ota-onasi va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o‘rtasidagi, “Oila to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o‘zga shaxslar o‘rtasidagi shaxsiy mulkiy va nomulkiy oilaviy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek, ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi”, deb ta’kidlangan⁸.

Boshqa tadqiqotchilar esa, aksincha, M.Quronovning ta’rifiga ko‘ra, “Milliy tarbiya mazmunini eng yaxshi o‘zbek oilalarida oilaviy munosabatlarda barqarorlikka mavjud bo‘lgan ta’lim-tarbiya mazmuni va bugungi kundagi davlat, jamiyat va maktab o‘quv maqsadlari yuzasidan bolalar tarbiyasiga qo‘yilgan talablardan mujassamlangan fazilatlar asosida namoyon bo‘ladi. Ma’lum bir fazilatlarning izchil, turli vaziyatlarda, turli vositalar yordamida amalga oshirish orqali takomillashtirilib borayotgani, pirovard natijada esa davlat va jamiyat, oila, mahalla va maktablarga namunaviy o‘quvchi, o‘g‘il-qizlarni axloqlarini namoyon etadi. Ushbu nuqtayi nazar orqali milliy davlatchiligidan, xalqimiz tarixi, hoziri, istiqlol va istiqboli oilada barqaror ijtimoiy munosabatlar talablarini umumlashtirgan holda hozir o‘quvchilarimizda shakllantirilishi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan fazilatlar tasnifi tuzildi. Barcha barkamol insoniy fazilatlar kabi mazkur fazilatlar ham ratsional, emotsional va faoliyatga asoslangan tarkibiy qismlar uyg‘unligiga tayanadi. Shu tufayli oila maktab, mahalla va maktabdan tashqari muassasalarining izchil, amaliy hamkorligi bu fazilatlarni maxsus shakllantirishning barqaror surat va sifatini ta’minlaydi”⁹.

Ba’zan bolalar uy yumushlariga haddan ortiq vaqt ajratishadi. Bu ham ularning ta’lim olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

⁸ “Хотин-кизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг муҳим омили” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани маколалари тўплами (2019 йил 26 февраль). – Тошкент: ТДИУ, 2019. – Б. 46.

⁹ Курунов М. Миллий тарбия: Монография. – Тошкент, 2004. – Б. 89.

Ba’zi o‘zbek oilalarida ota-onalar bolalarining o‘qishiga befarq bo‘lishadi, ular uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda hech qanday ilmiy yoki amaliy yordam berishmaydi. O‘zbek oilalarida bola uy vazifalarini kechqurun barcha oila a’zolari to‘planishgandagina bajarishni odat tusiga aylantirib olishgan. Bu vaziyatda sir emaski, ko‘pgina chalg‘ituvchi omillar – televizor ko‘rish, oila a’zolarining o‘zaro suhbatlashishi va hokazolar ham paydo bo‘ladi. Ko‘pgina oilalarda bolalarning o‘qishi uchun sharoitlar mavjud, biroq ular har doim ham yaxshi jihozlangan yoki qulay sharoitli bo‘lavermaydi. Bu borada juda ko‘pchilik ota-onalar pedagogik maslahatlarga ehtiyoj sezadi.

Oilaviy ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida ota-onaning xulq-atvori, farzandlar bilan muloqotda tanlaydigan taktikasi ko‘p jihatdan o‘zining bolalikda oiladagi ijtimoiylashuv tajribasiga borib taqalishini ko‘rsatuvchi tadqiqotlar kam emas. Xususan, eng yangi xorijiy tadqiqotlar bolalikda boshdan kechirilgan oilaviy zo‘ravonlik insonning o‘z farzandlari bilan bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarida ham aks etishini tasdiqlamoqda. Farzand bilan munosabatlarda oilaviy disfunksiya ro‘y berayotgani, ya’ni oila bola tarbiyasi sohasida o‘z ijtimoiy vazifalarini bajarishga qodir emasligini tan oluvchi ota-onalarning aksariyati o‘zining otanasi bilan munosabatini, odatda, nizoli bo‘lgan, deb baholaydilar¹⁰.

Bugungi kunda oila va uning o‘ziga xosliklari. Boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda oila shaxs tarbiyasida eng muhim vazifalarni bajaradi. Boisi aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy va kasbiy qiziqishlar hamda axloqiy me’yorlar shakllanadi. Insonga butun umri davomida oila omili ta’sir etadi. Oila ijtimoiy barqarorlik jihatdan insonlar turli ijtimoiy maqom va rollarni egallaydigan kichik ijtimoiy birlik jamoasi hisoblanadi. Oila insonning o‘zini-o‘zi to‘g‘ri shakllantira olishiga, uning ijtimoiy-ma’naviy faolligini oshirishiga yordam beradigan maskan va muhitdir.

¹⁰ Guss Sh.S.; Morris A.S., Bosler C., Castle Sh.L., Hays-Grudo J., Horm D.M., Treat A. Parents’ Adverse Childhood Experiences and Current Relationships with Their Young Children: The Role of Executive Function // Early Child Development and Care. – Philadelphia, 2020. V.190. – №7. pp. 1042-1052.

Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi.

Ijtimoiy pedagog faoliyati oilani o‘rganishdan boshlaydi, chunki oiladagi munosabatlarni o‘rganish pedagogga oilada bolaning holatini tasavvur qilish imkonini beradi. Oilani o‘rgangandan keyin ijtimoiy pedagog oldida oilada sog‘lom barqaror yangi munosabatlarni o‘rnatish vazifasi turadi. Bu muammoni oilani turli klublar, maslahatlar, maishiy birlashmalar, bog‘, tomorqadagi ishlarga jalb qilish yo‘li bilan hal ish mumkin.

Pedagog bolaning oilada tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lgach, oila bilan hamkorlikda u uchun reabilitatsion dastur variantlarini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagog “Oila xaritasi”ni tuzilib, unda oilaning har bir a’zosining tavsifi, tug‘ilgan sanasi aks ettiriladi.

Shuningdek, oila maqomi, yashash sharoitlari, qo‘shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi aniqlanadi. “Xarita”ning ilovasida “Oilada bola tarbiyasini o‘rganish” deb nomlangan qism ham mavjud bo‘lib, unda ota-onalar bola bilan qancha va qanday vaqt o‘tkazishi, ularning umumiy ishlari nimalardan iboratliligi, ota-onalar o‘z farzandi haqida nimalar bilishi haqidagi ma’lumotlar o‘z aksini topadi. Masalan, bola nimaga qiziqadi, nimalarni o‘qiydi, kimlar bilan do‘s tutinadi, uning sog‘ligi qanaqa va shu kabilar. Bundan tashqari, bu jarayonda bolalarning ham, o‘z navbatida, o‘z ota-onalari haqida nima bilishlarini aniqlash juda muhim. Shuningdek, ijtimoiy pedagog oiladagi kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni inobatga olishi muhim hisoblanadi.

Oilada hamkorlik mayjudmi yoki barcha munosabatlar kattalarning buyrug‘i asosida quriladimi? Agar bola birinchi sinfga qatnay boshlasa, ijtimoiy pedagog bolaning holati, kimga qanday murojaat qilishi, unga nima yoqish-yoqmasligini aniqlashi lozim. Ijtimoiy pedagog, birinchi navbatda, muvaffaqiyatsiz oilalar bilan to‘qnash keladi. Bularga bola doimiy ota-onalar janjallarida yashaydigan, ota-onasi giyohvand yoki alkogol ichimliklarga ruju qo‘ygan oilalar kiradi. Zamonaviy sharoitlar mavaffaqiyatsiz oilalar qatoriga ishsiz oilalarni ham kiritib qo‘ydi.

Pedagogika fanlari doktori, professor N.Egamberdiyevning tasnifiga ko‘ra, ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda quyidagi jadvalda keltirilgan asosiy rollarni bajaradi.

Oilada ijtimoiy-pedagogning oila bilan ish yuritish metodi

1. Maslahatchi	<ul style="list-style-type: none"> – oilaga ota-onalar va bolalarning o‘zaro ta’sirining muhimligi haqida gapirib beradi, bola tarbiyasi bo‘yicha pedagogik maslahatlar beradi.
2. Konsultant	<ul style="list-style-type: none"> – oila qonunchiligi masalasi bo‘yicha maslahat beradi, mavjud tarbiya metodlarini ma’lum qiladi, oilada bolaning me’yorda o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish usullarini tushuntirib beradi.
3. Himoyachi	<ul style="list-style-type: none"> – bola ota-onalari tomonidan (giyohvand yoki alkogol moddalarga ruju qo‘yanlar, bolalarga shafqatsiz munosabatda bo‘luvchilar) to‘liq degratatsiyaga duch kelganda, bolani himoya qiladi.

Ijtimoiy pedagogning oiladagi asosiy faoliyatini ijtimoiy pedagogik yordam tashkil qilib, bu yordam ta’limiy, psixologik va vositachilik ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-pedagogik yordam tizimiga ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ikki yo‘nalishi kiradi: ta’lim olishda va tarbiya olishda yordam ko‘rsatish. Ta’lim olishda yordam ko‘rsatish, deganda oilada vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi¹¹.

Oila jamiyatning mikrotuzilmasi sifatida unda sodir bo‘layotgan barcha jarayonlar ta’sirida bo‘lib, uning rivojlanishi ko‘p jihatdan jamiyatning mazmuniga bog‘liq. Ijtimoiy hayotning dinamikasi doimiy ravishda oila hayotiga yangi xususiyatlarni kiritib boradi. Jamiyatning yangi ehtiyojlariga muvofiq oilaning tuzilishi, uning vazifalari, oila a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiatni, tashqi dunyo bilan munosabatlari o‘zgarib bormoqda¹².

Jamiyatning oilaga ta’sir etish jarayoni biryoqlama bo‘lmaydi, balki aksincha – oilaning

jamiyatga ta’siri mavjud bo‘lib, unda kelajakdagi shaxsni har tomonlama shakllantirishning murakkab va nozik jarayoni sodir bo‘ladi. Aynan oilada shaxsning qirralari aniqlanadi, uning ichki dunyosi rivojlanadi, jamiyat madaniyatiga bosqichma-bosqich kirib boradi. Inson oilada ong va xarakter asoslarini oladi, bu yerda uning qarashlari va munosabatlari, axloqiy va irodaviy fazilatlari, jamiyat oldidagi burchlari, dunyoqarashi e’tiqodi va ijtimoiy yo‘nalishi haqida tushunchalar shakllanadi. Jamiyat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari shaxsning oilada nimani olib, keyinchalik jamiyatga nima olib kelishiga bog‘liq.

Inson shaxsiyatining yaxlitligi va “Inson – jamiyat” munosabatlarining ahamiyati ko‘p jihatdan shaxsning sotsializatsiyasi uchun zarur asos bo‘lgan oilaviy munosabatlarning tabiatiga bog‘liq. Shu munosabat bilan oila barqarorligi muamosiga murojaat qilish, kelib chiqish manbalarini tahlil qilish va bu oiladagi ijtimoiy munosabatlar barqarorlik mezonlarini aniqlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu masalalarni ijobjiy hal etish oiladagi ijtimoiy barqaror munosabatlarni oilani shakllantirishning asosi sifatida tushunishga bog‘liq.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, oilaviy ijtimoiy munosabatlar psixologiyasi va pedagogikasida to‘plangan tajribani ayrim eng yangi tadqiqotlar misolida o‘rganish asosida quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Oilaviy ijtimoiy munosabatlarni turli ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillar ta’siri xususiyatlarni aks ettiruvchi o‘ziga xos indikator sifatida o‘rganish zamонави油ila psixologiya va pedagogikasining alohida yo‘nalishi sifatida ajratilishi mumkin.

2. Oila a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy barqaror munosabatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillarni o‘rganishda ularni shartli ravishda uch guruhga – oila a’zolarining guruhiy mansubligi; ijtimoiy-psixologik tipologiyasi; oilaning obyektiv-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq omillarga ajratish o‘rinli.

3. Oilaviy hamda ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi ayrim ijtimoiy-psixologik omillar birinchi raqamli ta’sirlovchi sifatida bevosita o‘zi to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatsa, boshqa ayrim omillar vositachi-moderator ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

¹¹ Эгамбердиева Н. “Ижтимоий педагогика”: дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 106.

¹² Egamberdiyeva N., Yulchiyeva D. The Role of Spouses’ Relationships in Ensuring Family Well-being “Bulletin of Science and Practice” Scientific Journal. 2024, Volume 10, Issue 1.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-87-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/5899498>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/3107036>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarori // <https://lex.uz/docs/3797625>
4. Ибн Сино Абу Али. Тадбири манзил. – Тошкент, 2017. – 46 б.
5. Юсуф Хос Хожиб. Кутадгу билиг. – Тошкент: Йолдузча, 1990. – 189 б.
6. Кайковус. Қобуснома // 2-тўлдирилган нашри. – Тошкент: Истиқлол, 1994. – 173 б.
7. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллӣ ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Тошкент: "Адолат", 2016. – 224 б.
8. "Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг муҳим омили" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалари тўплами (2019 йил 26 февраль). – Тошкент: ТДИУ, 2019.
9. Куронов М. Миллӣ тарбия: Монография. – Тошкент, 2004.
10. Guss Sh.S.; Morris A.S., Bosler C., Castle Sh.L., Hays-Grudo J., Horm D.M., Treat A. Parents' Adverse Childhood Experiences and Current Relationships with Their Young Children: The Role of Executive Function // Early Child Development and Care. – Philadelphia, 2020. V.190. – №7.
11. Эгамбердиева Н. "Ижтимоий педагогика": дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллӣ кутубхонаси нашриёти, 2009.
12. Egamberdieva N., Yulchiyeva D. The Role of Spouses' Relationships in Ensuring Family Well-being "Bulletin of Science and Practice" Scientific Journal. 2024, Volume 10, Issue 1.

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Razzakova N., Sobirova E.,

Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.